

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

**QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK,
CHOG‘ISHTIRMA TILSHUNOSLIK VA
TARJIMASHUNOSLIK**

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

**COMPARATIVE LITERATURE STUDIES,
CONTRASTIVE LINGUISTICS AND
TRANSLATION STUDIES**

2023 Vol. 3 (4)

www.tsuull.uz
www.uzlctscls.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir:

Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o‘rinbosarlari:

Uzoq Jo‘raqulov

Nozliya Normurodova

Ziyoda Teshaboyeva

Mas‘ul kotib:

Mahmadiyor Asadov

Tahrir hay‘ati

Bahodir Xoliqov, Komiljon Hamroyev, Odiljon Safarov, Nargiza Rashidova, Aidaxon Bumatova, Nurmurod Chiniqulov, Nigora Sulaymonova, Ra‘noxon Xudjayeva, Yulduz Ziyayeva, Zulfiya To‘xtaxadjayeva, Gulnoraxon Niyazova, Shahnoza Sultonova, Shahnoza Asqarova, Ma‘suma Obidjonova.

Jurnal haqida ma‘lumot

“Qiyosiy adabiyotshunoslik chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik” seriyasi – qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik sohalarini qamrab olgan O‘zbekiston: til va madaniyat akademik jurnalining ilovasi hisoblanadi.

Jurnal bir yilda to‘rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslikka oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g‘oyalarga boy, o‘z konsepsiyasiga ega bo‘lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Jurnalda ilmiy maqolalar, kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e‘lon qilinadi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

O‘zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi,
103.

Email: uzlctscls.@navoiy-uni.uz

Website: www.uzlctscls.tsuull.uz

Alisher Navai Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov
Deputy editors-in chief: Uzok Djurakulov
Nozliya Normurodova
Ziyoda Teshaboeva
Executive secretary: Mahmadiyor Asadov

Editorial Board

Bahodir Kholikov, Komiljon Hamroev, Odiljon Safarov, Nargiza Rashidova, Aidakhon Bumatova, Nurmurod Chinikulov, Nigora Sulaymonova, Ra'nokhon Xudjaeva, Yulduz Ziyaeva, Zulfiya Tukhtakhadjaeva, Gulnorakhon Niyazova, Shahnoza Sultonova, Shahnoza Asqarova, Ma'suma Obidjanova.

About the Journal

UUzbekistan: Language and Culture. Comparative Literature Studies, Contrastive linguistics and Translation Studies series is an academic journal that publishes works in the field of comparative literary studies, contrastive linguistics and translation studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome.

In addition to research articles, the journal publishes thesis and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.trans.compliterary.tsuull.uz

MUNDARIJA

BOBURSHUNOSLIK

Uzoq Jo'raqulov	
“Bu olam aro ajab alamlar ko'rdum...”	6
Ne'matjon Otajonov	
Qomusiy asar “Boburnoma” va uning tarjimalari.....	14
Ilhom Aslonov	
“Boburnoma”da muallif psixologiyasining aks etishi.....	21
Olmos Xurramov	
Roman kontekstida Bobur va boburiylar obrazi.....	33
Ziyodaxon Teshaboyeva	
“Boburnoma”da tabiat tasviri va uning inglizcha tarjimalari.....	43
Aidaxon Bumatova	
Bobur lirikasi tarjimasida obraz adekvatligi.....	51
Botir Yuldashev	
Boburiylar davlatida yer egaligining “jogirdorlik” tizimi.....	60
Sayyora Shodmonova	
“Boburnoma” tarjimasida o'lchov birliklari.....	71
Ziyodaxon Teshaboyeva, Gulsanam Abdazova	
“Boburnoma” tarjimasida ekvivalentlik tadriji.....	81

TARJIMA VA TARJIMASHUNOSLIK

Xushnuda Samigova	
Tarjimada adekvatlik va ekvivalentlik masalasi.....	91
Gulnoz Mamarasulova	
Ijtimoiy-siyosiy matnlar tarjimasining stilistik muammolari.....	104
Shaxnoza Asqarova	
Antroponimik birliklarning tarjimada aks ettirish masalasi.....	117
Hulkar Turdiyeva	
Forscha “taorif” etiket birliklarini o'qitishda interfaol yondashuvlar.....	127
Nazokat G'offorova	
She'riy matn tarjimasining o'ziga xos xususiyatlari.....	138
Nilufar Bafoyeva	
Tarjima tarixi va tadriji.....	151
Gulrux Kaxxorova	
“Baxtiqaro Kerri” asari tarjimasida bog'lovchilar.....	158

CHOG'ISHTIRMA TILSHUNOSLIK

Ra'noxon Xudjayeva	
O'zbek-ingliz omonimlarning struktur-semantik tahlili.....	167

JAHON ADABIYOTI VA TIPOLOGIK TALQIN

Mahmadiyor Asadov	
Sizif haqida mif: Kamyu va Xurshid Do'stmuhammad.....	176
Sirojiddin Yo'ldoshev, Nigina Temirova	
Bolalar adabiyotida hajviya.....	186

CONTENT BOBURSTUDIES

Uzoq Joraqulov “I have witnessed acute pains in this world...”	6
Ne'matjon Otajonov The encyclopedic work “Boburnoma” and its translations.....	14
Ilkhom Aslonov The author’s psychological reflection in “Baburnama”	21
Olmos Khurramov The image of Babur and Baburites in the context of the novel	33
Ziyodakhon Teshaboeva Descriptions of the nature in “Baburnama” and their English translations.....	43
Aidakhon Bumatova Adequacy of image in the translation of Babur’s lyrics.	51
Botir Yuldashev The system of “Jagirdar” of ownership of a land in Baburi state.....	60
Sayyora Shodmonova Units of measurement in the translation of «Baburnama».....	71
Ziyodakhon Teshaboyeva, Gulsanam Abdazova The steps of equivalence in «Baburnama»s translation.....	81

TRANSLATION AND TRANSLATION STUDIES

Khushnuda Samigova The issue of adequacy and equivalence in translation.....	91
Gulnoz Mamarasulova The stylistic problems in the translation of socio-political texts.....	104
Shakhnoza Asqarova The issues of translation of anthroponomical units.....	117
Hulkar Turdieva Interactive approaches in Persian language “taarof” etiquette units .	127
Nazokat G’offorova Specific characteristics of the translation of poetry text.....	138
Nilufar Bafoyeva History and step of translation.....	151
Gulrukh Kakhkhorova Conjunctions “Sister Carrie”s translation.....	158

CONTRASTIVE LINGUISTICS

Ra’noxon Khudjaeva Structural-semantic analysis of Uzbek and English homonyms.....	167
--	-----

TYPOLOGICAL ANALYSES AND THE WORLD LITERATURE

Mahmadiyor Asadov Myth of Sisyphus: Camus and Khurshid Do’stmuhammad.....	176
Sirojiddin Yuldoshev, Nigina Temirova Humour in children’s literature.....	186

O'zbek-ingliz omonimlarning struktur-semantik tahlili

Ra'noxon Xudjayeva¹

Abstrakt

Ushbu maqolada o'zbek va ingliz omonimlarining qiyosiy struktur-semantik tahlili berilgan. Tadqiqot omonimik qatorlarning tuzilishi va ma'nosidagi farqlarni tushunish uchun ikkala tilda ham omonimiya xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan. Maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi omonimlarga misollar keltirilgan, shuningdek, ularning leksik va semantik xususiyatlari tahlil qilingan. Strukturaviy-semantik tahlil qilishda turli lingvistik usullardan, jumladan, so'z yasalishi, morfologik tuzilishi va sintaksisining qiyosiy tahlili qo'llangan. Tadqiqot natijalari o'zbek va ingliz omonimlarining o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash, nutqda qo'llanish xususiyatlarini tavsiflash imkonini beradi. Olingan ma'lumotlar lingvistik strukturada omonimiyaning leksik-semantik munosabatlarini kontekstda o'rganish uchun foydali bo'ladi.

Kalit so'zlar: *omonim so'zlar, semantik samaradorlik, tarjima jarayoni, etimologiya, muqobil tarjima, omillar, jargon, argo, varvarizm, vulgarizm.*

Kirish

Omonimik so'zlar badiiy asarlarda muallifga chuqurroq va yanadamurakkabmatnyaratishimkonini beruvchiasosiyvositalardan biridir. Badiiy asarlardagi omonimlar strukturaviy-semantik tahlili muallifning asarda omonimlardan qanday foydalanishini, o'ziga xos muhit va hissiyotlarni yaratishini tushunishga yordam beradigan usuldir.

Omonimlarning strukturaviy-semantik tahlili tadqiqotchining matndagi barcha omonim so'zlarni ajratib ko'rsatishidan boshlanadi. Keyin u har bir so'zning tuzilishini tahlil qiladi va asosiy ma'nosini belgilaydi. Shundan so'ng u omonimning muallif tomonidan qo'llanilgan kontekstini o'rganadi va uning butun asar ma'nosiga qanday ta'sir qilishini tushunishga imkon yaratadi.

¹ Xudjayeva Ra'noxon Mutalibjonovna – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: xudjayevaranoxon@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0001-6790-4344

Iqtibos uchun: Xudjayeva, R.M. 2023. "O'zbek-ingliz omonimlarning struktur-semantik tahlili". *O'zbekiston: til va madaniyat*, 3 (4): 167-175.

Badiiy adabiyotda omonimlar juda xilma-xil ma'noga ega bo'lib, ular turlicha qo'llaniladi. Misol uchun, ular ko'pincha so'zlashuv va hazil yaratish uchun ishlatilishi mumkin. Muallif matnga kutilmagan burilish yoki kayfiyatni kiritish uchun omonimlardan foydalanadi. U shuningdek, asarning hissiy fonini kuchaytirish uchun omonimik so'zlardan maxsus effektini yaratish uchun qo'llaydi.

Badiiy asarlarda qo'llangan omonimlarni strukturaviy-semantik tahlil qilishning muhim jihati so'zning asosiy ma'nosini anglashgina emas, balki uning matndagi obrazi hamdir. Masalan, "ot" so'zi hayvon, shuningdek, *biron narsani irg'itish* yoki *nomlanishga* nisbatan ishlatiladi.

Omonimlarni chuqurroq tahlil qilish uchun nafaqat kontekstni, balki muallif foydalanadigan tasvirlarni ham o'rganish kerak. Bu omonimning qaysi ma'nosi asarga eng mos kelishini tushunishga yordam beradi.

Binobarin, badiiy asarlardagi omonimlarning struktur-semantik tahlili orqali matnni chuqurroq tushunish, shuningdek, emotsional fon va muhit yaratishda omonimlardan qanday foydalanilish, aniq tushunish imkonini beradi. Bu usul aynan omonimiya hodisasini kengroq tadqiq etmoqchi bo'lgan talabgorlar oldida savollarni ochib beradi.

Tahlil va ilmiy asoslanishi

Omonim so'zlarning turli ma'no va mazmuni anglatishiga ko'ra ularni grammatik nuqtai nazardan strukturay – semantik jihatlari ham turlichadir. Misol uchun «dam» leksik semantik maydonidagi omonimik qatorni olaylik. "O'zbek tilining izohli lug'ati" da berilishiga ko'ra:

DAM 1 – nafas, tin .

DAM 2 – on, lahza; kez, payt.

DAM 3 – temirchilik sohasiga ko'ra o'choqdagi ko'mirni yondirish uchun havo yuboradigan, charmdan ishlangan asbob.

DAM 4 – chet, qirg'oq.

DAM 5 – asbobning kesadigan, o'tkir tomoni, tig'i.

Yuqorida dam leksik semantik maydonda strukturaviy jihatdan abstrakt (mavhum) ot shaklida aks etadi va dam turli mazmunni beradi. Ushbu omonimik qatorni o'zbek badiiy asarlarida strukturaviy-semantik jihatdan tahlil qilmoqchi bo'lsak, u Cho'lponning «Kecha va kunduz» asarida nafas, *tin* ma'nosida aks etgan.

- *So'fi hech narsa demay, o'rnidan turdi. Yana **damini** chiqarmasdan, ichkariga tomon bir-ikki qadam bosdi.*

- *Qurbonbibi so'zga qancha epchil bo'lsa, Razzoq so'fi shu qadar*

kamgap, indamas, **damini** ichiga solgan, ziqna odam edi.

Birinchi manoda berilgan «dam» mazmuni *nafas, tin olishi, damini rostlashi* «Kecha va kunduz» asari matnida talqin etiladi. Ushbu omonimik qatorning ikkinchi omonimi esa so'z *lahza, on* ma'nosida qo'llanilgan bo'lib, u Abdurauf Fitratning «Tanlangan asarlar»ida quyidagicha kuzatish mumkin:

- *Har **dam** ar yuz jon berur jononasiz, jonni netay.* Ushbu misolda ravishdosh orqali aks etib, *har dam* misoli orqali ko'zga tashlanadi.

«DAM» omonimik semantik maydonining uchinchi qatori esa Xudoyberdi To'xtaboyevning «Shirin qovunlar mamlakati» asarida shunday beriladi:

- *Boshqa bir mullaning qorni ham temirchilarning **damidek** katta ekan.*

Ushbu «dam» omonimik qatori *temirchilarning* yoki *o'choqdagi ko'mirni yondirish uchun havo yuboradigan, charmdan ishlangan asbob* ma'nosida qo'llangan. Quyidagi misolda esa, - *Ibrohim oyog'ini yozgani o'rnidan turdi va ayvonning **damiga** borib... uzoqdagi kaptarrang tog'larga qaradi.*

Abdulla Qahhorning «Qo'shchinor chiroqlari» asaridan olingan ushbu omonimning chet, qirg'oq ma'nolari matnda aks etganligini ko'ramiz.

- *Xanjarini qinidan sug'urib oldi-da, **damini** oydinga solib boqdi.* Ushbu misol Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» asarida «dam» omonimik so'zi *qilichning tig'i* ma'nosida qo'llangan. O'zbek badiiy asarlarida aks etgan «dam» omonimining semantik va strukturaviy jihatdan tahlil etadigan bo'lsak, ushbu omonimning ingliz badiiy asarlarida ham ko'rib chiqish ayni tarjima masalasi yechimining birdan bir yo'li deb qaraladi, chunki, ular quyidagicha aks etadi:

moment (*lug'atdan asliday olindi*)

1. a: a minute portion or point of time – vaqt birligi
a moment of dreadful suspense (Graham Greene) – *daxshatli shubha lahzasi*

b: a comparatively brief period of time – qisqa bo'lgan vaqt davri yoki oralig'i
moments of solitude – *yolg'izlik davri;*

2. a: present time – hozirgi vaqt;
at the moment she is at work on her fourth novel «Holliday» – hozirda u to'rtinchi «Holliday» romani ustida ishlamoqda;

b: a time of excellence or conspicuousness – ko'zga ko'rinish (tanilish) davri

there's ... some deliciously funny moments, but most of it is

numbly subtle (Jess Cagle) – juda kulgili va noziq lahzalar (Jes Keyl);

3. importance in influence or effect – ta'sir yoki ta'sirdagi ahamiyat

decisions of moment must be made by our government (L.H.Evans) – dolzarb qarorlar hukumatimiz tomonidan qabul qilinishi kerak (L.X. Ivans);

4. obsolete: a cause or motive of action – arxaik: harakatlar sababi;

5. a stage in historical or logical development – tarixiy yoki mantiqiy rivojlanish bosqichi;

6. a: tendency or measure of tendency to produce motion especially about a point or axis – o'q atrofida harakat hosil qilish tendensiyasi yoki shu tendesiya o'lchovi;

b: the product of quantity (such as a force) and the distance to a particular axis or point – miqdor mahsuloti (masalan, kuch) va ma'lum bir o'q yoki nuqtagacha bo'lgan masofa;

7. a: the mean of the n -th powers of the deviations of the observed values in a set of statistical data from a fixed value – statistik ma'lumotlar to'plamida kuzatilgan qiymatlarning qat'iy belgilangan qiymatdan chetlanishining raqamlar darajasining o'rtacha qiymati;

b: the expected value of a power of the deviation of a random variable from a fixed value – tasodifiy o'zgaruvchining belgilangan qiymatidan og'ish kuchining qiymati. Bundan ko'rinadiki, omonimik qator o'zbek tilida yanada ko'proq va zalvorliroq mazmunga ega ekan.

«DAM»omonimik qatorining inglizcha ma'nosi esa yana boshqa *lahza, on* mazmunli quyidagi misolda ko'rib chiqaylik. *Elizabeth felt herself becoming angrier every moment, but she tried to speak calmly. - Yelizaveta borgan sayin g'azabi oshayotganini sezdi, lekin u xotirjam gapirishga harakat qildi.*

Jeyn Ostenning "Pride and Prejudice" ya'ni, "Andisha va g'urur" asarida *lahza, on* ya'ni **moment** deb berilgan. Aynan shu asardagi ushbu misolda esa *nafas* ma'nosi qo'llanadi. *Jane, who was not so light as Elizabeth, soon slowed down, while her sister, out of breath, reached him and eagerly cried out. - Yelizavetadek yengil bo'lmagan Jeyn tezda sekinlashdi, singlisining nafasi qisib, unga tomon chopdi va jon-jahdi bilan yig'lab yubordi.*

Omonimlarga yana bir boshqa misolni olaylik: *When the people replied they had food, I was worried I had nothing to give in return, but at this very moment, two leopards appeared on the scene. (De-*

foe. *Robinson Crusoe*) – *Odamlar ovqat bor, deb javob berishganda, men buning evaziga beradigan hech narsam yo'qligi xavotirga solgandi, lekin ayni paytda sahnada ikkita leopard paydo bo'ldi.* Demak, yuqoridagi misol *at this very moment* da ayni paytda kabi *dam* leksik semantik maydonidagi muqobili tarjimada berilmoqda.

Demak, o'zbek tilidagi “dam” so'zi hamda ingliz tilida unga muqobil bo'lgan “**moment**” so'zining omonimik qatori borasidagi leksik, semantik tahlil lug'aviy ma'nolarini qiyosiy o'rgangan holda umumiy xulosa qiladigan bo'lsak, omonimik qatorning leksik ma'nolari bo'yicha ushbu ma'nolar o'zaro o'xshash va muqobil, bu ma'nolar bilan bir-biriga mos tushmaydi. Shu nuqtai nazardan ular xususiyatlarini alohida bir til ichida batafsil o'rganish maqsadga muvofiq degan xulosaga kelamiz.

O'zbek tilidagi “bahor” so'zining omonimik ma'nolari fikrimizcha, o'zbek tilidagi lug'at va boshqa manbalarda yetarlicha yoritib berilmagan. «Bahor» so'zi omonimik qator hisoblanib, bir-biriga bog'liq bo'lmagan ma'nolarga ega.

Omonimlarning leksikografik tadqiqiga bag'ishlangan izlanishlarimizda omonimik qatorlarni leksikografik tadqiq etish jarayonida omonim so'zlarning berilish tartibi, prinsiplari va muammolari haqida tadqiqotlar natijasidan kelib chiqqan holda shuni e'tirof etishimiz mumkinki, “O'zbek tilining izohli lug'ati” da “bahor” so'zi polisemantik so'z sifatida berilgan bo'lib, natijada u so'z omonimligini yo'qotib qo'ygan.

Omonimiya hodisasi xuddi parallel chiziq'larga, polisemiya hodisasi esa uchburchak chiziq'larga o'xshashi haqida avvalgi tadqiqotlarimizda aytib o'tganligimizni eslatib o'tishni joiz deb topdik. Chunki, omonimik so'zlar qatoridagi semantik maydon o'zaro farq qiladi. Polisemantik so'zlar o'rtasidagi semantik maydon esa o'zaro bog'liqdir.

Ingliz tilidagi “spring” omonimik qatori esa aynan shu o'zbek tilidagi “bahor” leksik birligiga muqobildir. Shu bilan ingliz leksikografiyasiga murojat qilsak. 13 tomlik «Oxford English dictionary» lug'atida ushbu omonimik qatori 3 ta so'zdan iborat.

Ingliz tilidagi «spring» leksik birligining leksikografik nuqtai nazardan tahlili shunday xulosani beradiki, ushbu so'zning ot va fe'l vazifasida kelgan ma'nolari o'zaro asosiy omonimik qatorni tashkil qilsa-da, ularning ma'nolari butunlay bir biridan farq qiladi. Ushbu so'zning ot so'z turkumi vazifasida keluvchi ma'nosi o'zaro 5 ta omonimik qatorni tashkil etishi soha mutaxassisi bo'lgan tarjimon uchun muhim ahamiyatga ega.

Ingliz badiiy asarlarida aynan shu omonimik qatorlarni o'zbek

tiliga tarjima qilinishida ham ularni turli morfologik va stilistik jihatlarda ko'rishimiz mumkin. Masalan Mari-Xenri Beylning «The red and the black» tarixiy-psixologik novellasidan misollarni tahlil etadigan bo'lsak. Bu asarda «**spring**» omonimik qatorining *bahor, buloq* semantik ma'nolari ishtirok etishini ko'ramiz.

... with the first fine days of **spring** M.de Renal removed his household to Vergy. – Bahorning ilk go'zal kunlarida M.de Renal o'z xonadonini ko'chirib ketdi... Keyingi misolga qaraymiz:

...a limpid **spring** which wells up to quench my thirst in the burning desert. – ... yonayotgan sahroda chanqog'imni qondiradigan musaffo buloq... (tarjimon).

J.R.Tolkeynning zamonaviy asarlaridan biri hisoblangan "Xobbit" asarida «spring» omonimi suv havzasi ma'nosida qo'llangan: *Water, he said, they would not need to carry this side of the forest, for there were streams and **springs** along the road.* – Suvni, dedi u, ular o'rmonning bu tomoniga yo'naltirishlariga hojat yo'q, chunki yo'l bo'ylab soylar va suv havzalari mavjud (muallif tarjimasi).

Jon Kraukerning "Yovvoyi tabiat" asarida esa «spring» omonimining buloq ma'nosi qo'llangan: – *Mc Candless, however, wasn't living right at the **springs**; he was camped by himself another half mile out on the Bajada....* – Biroq, mister Kandless buloq bo'yida yashashni istamadi. U Bajadadan yarim mil uzoqlikda o'zi uchun qurgan "qarorgoh"da yashar edi. Ushbu ingliz badiiy asarida qo'llangan va o'zbek tiliga omonimik qatorning semantik ma'nolarini mohirona tarjima qilinganligi yaqqol ko'rinib turibdi.

Tarjimon juda ko'p sohaning mutaxassisi bo'lishi, har bir tilning o'ziga xos jihatlarini bilishi va qiyoslay olishi lozim ekan. Shuningdek, omonimlar yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek alohida aspekt sifatida qaralib, uni fan doirarisida ma'ruza matnlari tayyorlab, hattoki bir fan tarzida o'qitilish lozim degan xulosa keladi. Ingliz tilida alohida, o'zbek tilida alohida. Chunki frazeologiya sohasi katta bir aspekt sifatida qaraladigan hodisa bo'lsa, omonimlar ham alohida qiyosiy tarzda batafsil o'rganiladigan, tarjimonlar uchun bir necha muammolarni hal etishi mumkin. Ingliz tili aspekti nuqtai nazaridan gohida tarjimonlarning yolg'on do'sti kabi terminlarni uchratamiz, lekin u yolg'on do'stlar faqat birgina ingliz tilida mavjud bo'lsa, xuddi shunday o'zbek tilida ham ushbu hodisa turlicha yechiladi va talqin etiladi.

Masalan, F.S.Fisdjeraldning «The Great Gatsby» asarida qo'llangan «bass» omonimik qatorini struktur-semantik jihatdan tahlil etsak: ingliz tilidagi ushbu omonimik qator asosiy manolari: *musiqa basi, musiqa asboblari, somon tolası, qattiq loy, baliq.*

Asarda ushbu omonimik qatorning *baliq* ma'nosi qo'llangan: - *"We went down to the mossy edge of a great spur of the mountain, where trout lay in the deep still water of the pool. It was so quiet there that we could hear the trout breaking water in the still reaches below, like shows of the black **bass** under the dock."* Ushbu omonimik qatorni struktur-semantik tahlil etishda kontekst muqobil ma'noni to'g'ri tanlashda yordam berdi.

Xuddi shu asarda qo'llangan «bow» yana bir omonimik qatorni tahlil etsak. Struktur jihatdan ot va fe'l bo'lgan ushbu omonimik qator semantik tarafdin ot sifatida *kemaning old qismiga* ishora qiladi. Fe'l sifatida esa *salomlashish* yoki hurmat yuzasidan boshini egishni anglatadi: - *"He lifted his eyes toward the slowly rising sun. There was a hint of pink in the sky now; over the gray land lay the impenetrable wisps of drifting fog, and the estate of Tom's employer loomed out of the mist at the end of the dock, a tower and a platform and the white triangle of the **bow**."*

Xarper Liining «To Kill a Mockingbird» asarida qo'llangan «tear» omonimik qatori esa struktur jihatdan ot va fe'l dir. Semantik tahlili esa ot *ko'z yosh*, ya'ni *biz yig'laganimizda* yoki *og'riq natijasida ko'zdagi bezlar tomonidan chiqariladigan tiniq sho'r suyuqlik tomchisini* anglatadi. Fe'l sifatida esa *yirtish*, ya'ni *nimanidir kuch bilan tortib olish* yoki *yirtib tashlashni* anglatadi: - *"His lips parted into a timid smile, and our neighbor's image blurred with my sudden **tears**. 'Hey, Boo,' I said."*

Xulosa

Badiiy asarlardagi omonimlarning struktur-semantik tahlili natijasida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Omonimlar badiiy ifodaning muhim vositasidir. Ular muallifga matnda turli ma'noli so'zlarni qo'llash imkonini beradi, bu esa kontekstni boyitadi va idrokning qo'shimcha nyanslarini yaratadi;

2. Omonimlarning strukturaviy-semantik tahlili asar doirasidagi ma'nolarini aniqlash va farqlash imkonini beradi. Bu sizga muallifning niyatini yaxshiroq tushunish va matnni yanada chuqurroq talqin qilish imkonini beradi.

3. Badiiy asarlarda omonimlardan foydalanishning eng muvaffaqiyatli yo'li bu kontekstdir. U muallif va o'quvchi-kitobxon o'rtasida chuqur, hissiy aloqani yaratishga imkon beradi.

Shunday qilib, badiiy asarlardagi omonimlarning struktur-semantik tahlili asar va uning muallifini yaxshiroq tushunishda muhim vosita hisoblanadi.

Tadqiqotimiz shuni ko'rsatdiki, omonim so'zlar badiiy

matnda turli xil vazifalarni bajaradi. Omonimlar matnda muayyan uslub yaratish vositasi sifatida ham ishlatiladi.

Demak, badiiy asarlardagi omonimlarning struktur-semantik tahlili til madaniyati va umuman adabiy ijodga muhim ta'sir ko'rsatadi. Bunday tahlildan foydalanish yozuvchilar, adabiyotshunoslar va tilshunos olimlar uchun til hamda madaniy xususiyatlarni chuqurroq tushunish uchun foydali vosita bo'ladi.

Adabiyotlar

- Джурбаева, М.А. 1975. Аффиксальная омонимия в узбекском языке... Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Т.
- Madvaliev, A. 2006-2008. "O'zbek tilining izohli lug'ati", – Toshkent.
- Xudjaeva, R.M. 2017. Genetik bog'lanmagan leksik omonimlar samaradorligi. Monografiya. – T.: Fan va texnologiya, O'zbek tilining izohli lug'ati. I, II, III, IV, V jildlar – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006-2008.
- Stendal. Qizil va qora. 2019. Roman. Ruschadan H. To'rabekov tarj. - T.: Yoshlar nashriyot uyi.
- Merriam-Webster's Collegiate Dictionary, Eleventh Edition, 2020, 1,664 p
- NOVEL: A Forum on Fiction Vol. 22, No. 1 (Autumn, 1988), Published By: Duke University Press. pp. 24-44
- Stendal, (Henri Beyle). 1830. "The red and the black" (Le Rouge et le Noir) Franc. 2 vols. ISBN 0-521-34982-6.
- Walter William Skeat An Etymological Dictionary of the English Language Izd. 2 Clarendon Press. 1893. – r. 844
- Whilford H.C. A dictionary of English homonyms, pronouncing and explanatory. –L., 1899.

Structural-semantic analysis of Uzbek and English homonyms

Ra'nokhon Khudjaeva¹

Abstract

This article presents a comparative structural and semantic analysis of Uzbek and English homonyms. The study is aimed at identifying the features of homonymy in both languages in order to understand the differences in the structure and meaning of homonymic sequences. The

¹ *Ranakhon M. Khudjaeva* – Doctor of Philosophy in Philology (PhD), Associate Professor. Alisher Navoi'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

E-mail: xudjayevaranoxon@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0001-6790-4344

For citation: Khudjaeva, R.M. 2023. "Structural-semantic analysis of Uzbek and English homonyms". *Uzbekistan: Language and Culture*, 3 (4): 167-175.

article presents examples of homonyms in Uzbek and English, and also analyzes their lexical and semantic features. Structural analysis uses various linguistic methods, including comparative analysis of word formation, morphological structure and syntax. The results of the study made it possible to determine the similarities and differences between Uzbek and English homonyms, as well as to describe the features of their use in speech. The information obtained will be useful for the contextual study of the lexico-semantic relations of homonymy in the linguistic composition.

Key words: *homonyms, semantic productiveness, translation process, etymology, alternative translation, factors, jargon, argot, barbarism, vulgarism.*

References

- Dzhurabayeva, M.A. 1975. Affixal'naya omonimiya na uzbekskom yazyke... Avtoref.diss...kand.filol.nauk. – T.
- Madvaliev, A. 2006-2008. "O'zbek tilining izohli lug'ati", – Toshkent.
- Xudjaeva, R.M. 2017. Genetik bog'lanmagan leksik omonimlar samaradorligi. Monografiya. – T.: Fan va texnologiya, O'zbek tilining izohli lug'ati. I, II, III, IV, V jildlar – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006-2008.
- Stendal. Qizil va qora. 2019. Roman. Ruschadan H. To'rabekov tarj. - T.: Yoshlar nashriyot uyi.
- Merriam-Webster's Collegiate Dictionary, Eleventh Edition, 2020, 1,664 p
- NOVEL: A Forum on Fiction Vol. 22, No. 1 (Autumn, 1988), Published By: Duke University Press. pp. 24-44
- Stendal, (Henri Beyle). 1830. "The red and the black" (Le Rouge et le Noir) Franc. 2 vols. ISBN 0-521-34982-6.
- Walter William Skeat An Etymological Dictionary of the English Language Izd. 2 Clarendon Press. 1893. – r. 844
- Whilford H.C. A dictionary of English homonyms, pronouncing and explanatory. –L., 1899.